



SHAXS RIVOJLANISHIDA PSIXIK TARAQQIYOTNING PSIXOANALITIK TALQINI

Umarova Muqaddas Muxtarovna

Qo'qon davlat universiteti

Maktabgacha ta'lim kafedrası p.f.n, dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxs rivojlanishi jarayonida psixik taraqqiyotning psixoanalitik yo'nalishi kompleks va tizimli ilmiy-nazariy yondashuv asosida tahlil etiladi. Tadqiqotda psixoanalitik nazariyaning fundamental asoslari, xususan, inson psixikasining strukturaviy modeli — Id, Ego va Superego komponentlarining o'zaro munosabatlari hamda ongsiz jarayonlarning shaxs shakllanishidagi determinatsion roli ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ontogenez jarayonida bolalik davrining ahamiyati yoritilib, Zigmund Freyd tomonidan ilgari surilgan psixoseksual rivojlanish bosqichlari (oral, anal, falik, latent va genital)ning shaxs taraqqiyotiga ta'siri izchil tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: psixoanaliz, shaxs rivojlanishi, ongsiz jarayonlar, psixik taraqqiyot, psixoseksual rivojlanish, intrapsixik mexanizmlar, Id, Ego, Superego, determinatsiya, ontogenez

ПСИХОАНАЛИТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ

Умарова Мукаддас Мухтаровна

Кокандский государственный университет

Кафедра дошкольного образования,

кандидат педагогических наук, доцент

Аннотация: В данной статье представлен комплексный научно-теоретический анализ психоаналитического подхода к психическому развитию личности. В исследовании рассматриваются фундаментальные положения психоаналитической теории, в частности структурная модель психики человека — Id, Ego и Superego, а также детерминирующая роль бессознательных процессов в формировании личности. В контексте онтогенеза особое внимание уделено значению раннего детства, а также последовательно проанализированы стадии психосексуального развития (оральная, анальная, фаллическая, латентная и генитальная), предложенные Zigmund Freyd, с точки зрения их влияния на развитие личности.

Ключевые слова: психоанализ, развитие личности, бессознательное, психосексуальные стадии, Эго, Ид, Суперэго, психология, психическое развитие.

Kirish Zamonaviy psixologiya fanida shaxs rivojlanishi muammosi eng dolzarb va ko‘p qirrali ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Insonning psixik taraqqiyoti biologik, ijtimoiy hamda individual-psixologik omillarning murakkab o‘zaro ta’siri natijasida shakllanib, uning xulq-atvori, motivatsion tizimi va ijtimoiylashuv jarayonini belgilovchi muhim determinant sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois shaxs rivojlanishining nazariy-metodologik asoslarini chuqur o‘rganish nafaqat psixologiya, balki pedagogika va boshqa ijtimoiy fanlar uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shaxs rivojlanishini izohlashga qaratilgan nazariy yondashuvlar orasida psixoanalitik yo‘nalish alohida o‘rin egallaydi. Ushbu yo‘nalish asoschisi Zigmund Freyd tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarga ko‘ra, inson psixikasi ongli va ongsiz qatlamlardan tashkil topgan bo‘lib, uning xulq-atvori ko‘p jihatdan ongsiz instinktlar, ichki psixik ziddiyatlar hamda bolalik davridagi tajribalar bilan belgilanadi.¹ Freyd tomonidan ishlab chiqilgan psixik tuzilma modeli — Id, Ego va Superego — shaxsning ichki dinamikasini tushuntirishda muhim nazariy asos sifatida qaraladi.

Keyinchalik psixoanalitik yondashuv Carl Gustav Jung, Alfred Adler hamda Erik Erikson tomonidan rivojlantirilib, shaxs rivojlanishining ijtimoiy, madaniy va individual jihatlari bilan boyitildi. Xususan, Jung kollektiv ongsiz va arxetiplar konsepsiyasini ilgari surgan² bo‘lsa, Adler shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhit va ustunlikka intilish omillarini asoslab berdi,³ Erikson esa shaxs taraqqiyotini psixososial bosqichlar orqali izohlab berdi.⁴

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar psixoanalitik yondashuvning ayrim jihatlari hanuz dolzarbligini saqlab qolayotganini tasdiqlaydi. Xususan, ongsiz jarayonlar, bolalik davri tajribasi va intrapsixik ziddiyatlarning shaxs rivojlanishidagi o‘rni bugungi ilmiy izlanishlarda ham muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, psixoanalitik nazariya boshqa yondashuvlar bilan integratsiya qilinib, shaxsni kompleks o‘rganishga xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi shaxs rivojlanishi jarayonida psixik taraqqiyotning psixoanalitik yo‘nalishini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, uning asosiy konsepsiyalari va rivojlanish mexanizmlarini ochib berish hamda zamonaviy psixologiya nuqtai nazaridan ilmiy jihatdan baholashdan iborat.

Psixoanalitik yo‘nalish shaxs psixik rivojlanishini tushuntirishda muhim nazariyalardan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalish asoschisi Sigmund Freud inson psixikasining ongli va ongsiz qatlamlardan iborat ekanligini ilmiy asoslab bergan. Freyd nazariyasiga ko‘ra, inson xulq-atvori ko‘pincha ong osti jarayonlari va instinktlar bilan belgilanadi hamda bu jarayonlar shaxs rivojlanishining ichki mexanizmlarini tashkil etadi.⁵ Freyd tomonidan ilgari surilgan psixik tuzilma modeli — Id, Ego va Superego — shaxsning ichki tuzilishini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Id biologik instinktlar manbai bo‘lsa, Ego real voqelik bilan moslashadi, Superego esa axloqiy me’yorlarni ifodalaydi. Ushbu uch tuzilma o‘rtasidagi ziddiyatlar shaxs rivojlanishining asosiy dinamikasini tashkil etadi. Psixoanalitik nazariyada himoya mexanizmlari muhim o‘rin

¹ Zigmund Freyd. *The Ego and the Id*. – London: Hogarth Press, 1923.

² Carl Gustav Jung. *The Archetypes and the Collective Unconscious*. – Princeton: Princeton University Press, 1968.

³ Erik Erikson. *Childhood and Society*. – New York: W. W. Norton & Company, 1950.

⁴ Alfred Adler. *Understanding Human Nature*. – New York: Greenberg Publisher, 1927.

⁵ Schultz, D. P., & Schultz, S. E. *Theories of Personality*. 11th ed. Boston: Cengage Learning, 2017.

tutadi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar ushbu mexanizmlarning inson psixologik barqarorligini saqlashdagi rolini tasdiqlaydi.⁶

Psixanalitik yo‘nalishda shaxs rivojlanishi bosqichma-bosqich jarayon sifatida talqin etiladi. Zigmund Freyd tomonidan ishlab chiqilgan psixoseksual rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, inson hayoti davomida besh asosiy bosqichdan o‘tadi: oral, anal, falik, latent va genital bosqichlar. Har bir bosqichda bola muayyan psixologik vazifalarni hal qiladi va bu jarayon uning kelajakdagi shaxsiy rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, bolalik davridagi tajribalar shaxsning hissiy barqarorligi va xulq-atvoriga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslangan. Zamonaviy psixologiya psixanalitik bosqichlar nazariyasini to‘liq qabul qilmasa-da, bolalik davrining ahamiyatini yuqori baholaydi. Bu esa psixanalitik yondashuvning muhim jihatlari hanuz dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.⁷

Psixanalitik nazariya keyinchalik boshqa olimlar tomonidan rivojlantirildi. Jumladan, Carl Gustav Jung inson psixikasida kollektiv ong osti mavjudligini asoslab berdi. Uning fikricha, inson ong ostida arxetiplar mavjud bo‘lib, ular shaxs rivojlanishiga umumiy insoniy tajriba orqali ta‘sir ko‘rsatadi. Alfred Adler esa shaxs rivojlanishida ijtimoiy omillarning muhimligini ta‘kidlab, insonning asosiy motivatsiyasi sifatida ustunlikka intilish g‘oyasini ilgari surdi.⁸

Hozirgi davrda psixanalitik yondashuv psixologiya fanida yangicha talqin qilinmoqda. U psixodinamik yondashuv shaklida rivojlanib, boshqa nazariyalar bilan integratsiya qilinmoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar psixanalitik g‘oyalar, ayniqsa, ong osti jarayonlari va bolalik tajribasining shaxs rivojlanishidagi rolini tasdiqlamoqda. Ushbu yondashuv psixoterapiyada keng qo‘llanilib, insonning ichki muammolarini aniqlash va hal etishda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. O‘zbek psixologiya adabiyotlarida ham shaxs rivojlanishida psixik jarayonlarning ahamiyati alohida ta‘kidlangan.⁹

Psixanalitik nazariyada shaxs rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ichki psixik jarayonlar qaraladi. Ushbu jarayonlar ongli va ongsiz darajalarda kechib, inson xulq-atvorining shakllanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Zigmund Freyd ta‘limotiga ko‘ra, inson psixikasida doimiy ravishda instinktlar va ijtimoiy talablar o‘rtasida ziddiyat yuzaga keladi. Ushbu ziddiyatlar shaxs rivojlanishining ichki dinamikasini tashkil etadi. Ichki mexanizmlar tarkibida himoya mexanizmlari alohida ahamiyatga ega. Ular shaxsni psixologik zo‘riqishlardan himoya qilish bilan birga, uning xulq-atvorini shakllantiradi. Masalan, repressiya orqali inson yoqimsiz xotiralarni ong ostiga siqib chiqaradi, proyeksiya orqali esa o‘zidagi salbiy sifatlarni boshqalarga yuklaydi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar ushbu mexanizmlarning inson ruhiy salomatligini saqlashdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Psixanalitik yondashuvda motivatsiya tushunchasi ham muhim o‘rin tutadi. Insonning ichki ehtiyojlari va instinktlari uning faoliyatini boshqaradi. Bu jarayonda ongsiz motivlar ko‘pincha hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, ular insonning ongli qarorlaridan ham ustun turishi mumkin.

⁶ McLeod, S. A. Psychoanalytic Theory. Simply Psychology, 2020.

⁷ Fonagy, P. Attachment Theory and Psychoanalysis. London: Routledge, 2001.

⁸ Westen, D. “The Scientific Legacy of Sigmund Freud.” Psychological Bulletin, 1998.

⁹ G‘oziyev, E. G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.

Psixanalitik nazariya psixologiya faniga katta hissa qo‘shgan bo‘lib, uning asosiy afzalliklaridan biri inson psixikasining chuqur qatlamlarini o‘rganishga imkon yaratganidadir. Ushbu yondashuv inson xulq-atvorini faqat tashqi omillar bilan emas, balki ichki psixik jarayonlar orqali tushuntiradi. Shu jihatdan u shaxs rivojlanishini kompleks yondashuv asosida tahlil qilish imkonini beradi. Psixanalitik nazariyaning yana bir muhim afzalligi — bolalik davrining ahamiyatini asoslab berganidadir. Bu g‘oya zamonaviy psixologiyada ham keng qo‘llanilib, tarbiya va ta’lim jarayonida muhim nazariy asos sifatida xizmat qilmoqda. Zamonaviy tadqiqotlar ham bolalik tajribasining inson shaxsiyati shakllanishidagi hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi.

Psixanalitik yo‘nalish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. U psixoterapiya jarayonida insonning ichki muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etishda keng qo‘llaniladi. Psixanalitik terapiya usullari orqali inson o‘z ong osti jarayonlarini anglab yetadi va ichki ziddiyatlarini hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Zamonaviy psixologiyada psixanalitik g‘oyalar pedagogika, klinik psixologiya va ijtimoiy psixologiya sohalarida ham qo‘llanilmoqda. Masalan, ta’lim jarayonida bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish, ularning emotsional holatini tushunish va individual yondashuvni qo‘llash psixanalitik nazariyaning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi. O‘zbek psixologiya maktabi vakillari ham shaxs rivojlanishida psixik jarayonlarning muhimligini ta’kidlab, insonning ichki dunyosini o‘rganishga alohida e’tibor qaratganlar. Bu esa psixanalitik yondashuvning milliy psixologiya rivojida ham muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki mazkur maqolada shaxs rivojlanishi jarayonida psixik taraqqiyotning psixanalitik yo‘nalishi ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, psixanalitik yondashuv inson psixikasining chuqur qatlamlarini o‘rganishga qaratilgan muhim nazariy yo‘nalish bo‘lib, shaxs rivojlanishining ichki mexanizmlarini tushuntirishda alohida ahamiyatga ega. Tahlillar asosida aniqlanishicha, Zigmund Freyd tomonidan ishlab chiqilgan psixanalitik nazariya inson xulq-atvorining asosiy omili sifatida ong osti jarayonlarini ilgari suradi. Uning psixik tuzilma modeli (Id, Ego, Superego) hamda psixoseksual rivojlanish bosqichlari shaxs shakllanishining muhim bosqichlarini izohlashda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, Freyd g‘oyalari keyinchalik Carl Gustav Jung, Alfred Adler va Erik Erikson tomonidan rivojlantirilib, shaxs rivojlanishining ijtimoiy va madaniy jihatlari bilan boyitildi.

Psixanalitik yondashuv shaxs rivojlanishida bolalik davrining hal qiluvchi rolini asoslaydi hamda inson xulq-atvorining ko‘plab jihatlari ong osti jarayonlari bilan bog‘laydi. Zamonaviy psixologiya nuqtai nazaridan ushbu yondashuvning ayrim jihatlari qayta ko‘rib chiqilgan bo‘lsa-da, uning asosiy g‘oyalari hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda va boshqa nazariyalar bilan integratsiya qilinib qo‘llanilmoqda. Psixanalitik nazariyaning ayrim cheklovlari ham mavjud bo‘lib, ularning asosiylari ilmiy empirik asoslarning yetarli darajada isbotlanmaganligi hamda ayrim tushunchalarning subyektiv talqin qilinishidir. Biroq bu holat ushbu yondashuvning psixologiya fanidagi tarixiy va nazariy ahamiyatini kamaytirmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fonagy, P. Attachment Theory and Psychoanalysis. London: Routledge, 2001.

2. G‘oziyev, E. G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
3. McLeod, S. A. Psychoanalytic Theory. Simply Psychology, 2020.
4. Schultz, D. P., & Schultz, S. E. Theories of Personality. 11th ed. Boston: Cengage Learning, 2017.
5. Westen, D. “The Scientific Legacy of Sigmund Freud.” Psychological Bulletin, 2021